

Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar – iyun oylarida, Samarqand viloyatida jami 9 894,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 137,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	9 894,8	137,7
<i>Shaharlar</i>		
Samarqand sh.	2 494,1	137,8
Kattaqo'rg'on sh.	194,5	139,0
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	531,0	220,1
Bulung'ur	248,1	198,1
Jomboy	334,9	151,1
Ishtixon	417,3	138,6
Kattaqo'rg'on	210,8	119,0
Qo'shrabot	514,9	137,8
Narpay	507,4	139,0
Payariq	887,2	127,1
Pastdarg'om	537,9	146,5
Paxtachi	182,5	124,0
Samarqand	554,2	139,7
Nurobod	78,6	167,7
Urgut	378,1	119,5
Toyloq	635,2	180,0
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	1 188,1	107,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 33,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi.

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 64,3% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,8 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,5 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 139,5 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	133,9	1 705,8	0,0
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>180,1</i>	<i>22,9 m.</i>	<i>0,0</i>
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 028,7	4 654,4	248,5
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>62,4</i>	<i>143,3</i>	<i>114,0</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 123,5	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>96,8</i>	-	-

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar - iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 839,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,1 martani va ularning umumiy hajmdagi ulushi 18,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 70,1 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 134,8 % ni tashkil etgan holda 6 931,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 11,4 % ni yoki 1 123,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 96,8 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Samarqand viloyati	1 839,7	6 931,6	1 123,5	2,1 m.	134,8	96,8
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	366,9	2 070,4	56,8	3,5 m.	129,6	50,9
Kattaqo'rg'on sh.	5,1	166,9	22,5	-	141,0	104,6
<i>tumanlar</i>						
Oqdaryo	39,1	460,8	31,1	139,1	2,4 m.	113,4
Bulung'ur	49,7	172,2	26,1	5,0 m.	2,2 m.	69,2
Jomboy	40,4	265,6	29,1	198,2	150,6	116,4
Ishtixon	40,4	358,3	18,6	3,7 m.	134,6	77,4
Kattaqo'rg'on	25,0	166,2	19,6	3,4 m.	112,5	88,7
Qo'shrabot	211,5	281,8	21,6	9,6 m.	104,8	79,1
Narpay	16,0	448,3	43,1	4,8 m.	135,5	139,9
Payariq	161,5	696,9	28,9	10,3 m.	107,1	90,5
Pastdarg'om	209,1	291,9	36,9	104,0	2,3 m.	83,3
Paxtachi	9,9	146,9	25,7	2,1 m.	125,2	120,6
Samarqand	120,9	401,7	31,6	147,7	141,0	92,0
Nurobod	9,6	46,1	22,8	125,4	3,1 m.	84,2
Urgut	14,6	338,4	25	3,1 m.	122,4	90,8
Toyloq	378,8	221,9	34,5	2,5 m.	125,0	112,4
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	141,2	397,3	649,6	86,7	121,4	116,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Payariq tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 10,3 m.), Qo'shrabot tumanida (9,6 m.) va Bulung'ur tumani (5,0 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Nurobod tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 3,1 m.), Oqdaryo tumanida (2,4 m.) va Pastdarg'om tumanida (2,3 m.) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

L. Haitov
66 235-60-82 (3020)

Manzil:

